(6). Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Алий ибн Ҳасан Ҳаким Термизий. Сарахс аҳли сўраган масалалар. Касбнинг баёни. Таржимон шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тошкент, "Hilol", 2019,160-бет.

(7). Орифлар тасаллиси. Ҳаким Термизий асарларидан сайланма. Таржимон И.Усмонов ва бошқ; Тошкент, "Movarounnahr", 2018, 247-бет.

Karayev Nizam Abduraimovich (O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi; Karayev@inbox.ru)

AXLOQIY MADANIYATNING MOHIYATI VA MAZMUNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada axloqiy madaniyatning mohiyati va mazmuni yoritilgan. Axloqiy madaniyat insonda uning xulqi orqali namoyon bo'ladi. Xulq esa kishilarning ongi va irodasi bilan belgilanadigan axloqiy xatti-harakatlarning yig'indisidir. Axloqiy madaniyat qoidalari bu insoniyatning asrlar osha o'z tajribasi orqali erishgan natijalaridir.*

Kalit so'zlar: *axloq, xulq, me'yor, hatti-harakat, qoida, ong, tafakkur.*

СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ НРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *В данной статье описывается сущность и содержание нравственной культуры. Нравственная культура проявляется в человеке через его поведение. Поведение – это совокупность нравственных действий, определяемых разумом и волей людей. Правила нравственной культуры являются результатом многовекового человеческого опыта.*

Ключевые слова: *мораль, поведение, норма, поведение, правило, сознание, мышление.*

ESSENCE AND CONTENT OF MORAL CULTURE

Annotation. *This article discusses the essence and content of moral culture. Moral culture is manifested in a person through his behavior. Behavior is the sum of moral actions determined by the consciousness and the will of people. The rules of moral culture are the results achieved by humanity through its own experience over the centuries.*

Keywords: *morality, behavior, norm, behavior, rule, consciousness, thinking.*

Kirish. Axloqiy madaniyat insonda uning xulqi orqali namoyon bo'ladi. Xulq esa kishilarning ongi va irodasi bilan belgilanadigan axloqiy xatti-harakatlarning yig'indisidir. Kishilarning xulqi jamiyatda axloqiy madaniyatlarni shakllantirish, jamiyatning axloqiy muhitini yaratishda katta rol o'ynaydi. Xulqqa xos xususiyat elementi axloqiy xatti-harakatdir. Xatti-harakat kishining ijobiy yoki salbiy xislatlarini namoyon etadigan faoliyatdir. Boshqacha qilib aytganda, xatti-harakat kishining ongli yo'naltirgan va yakunlangan harakati yoki faoliyatidir. Xatti-harakatlar to'g'ridan to'g'ri faoliyat qilishdangina iborat emas. Ular faoliyatsizlik – sukut, passivlik, loqaydlik yoki imo-ishora, qiliq, ohang tarzidagi munosabatlarda ham ifodalanishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metod (materials and methods). Axloqiy madaniyat qoidalari bu insoniyatning asrlar osha o'z tajribasi orqali erishgan donishmandlik namunalarini hikmatlar, naqllar, matal-maqollar tarzida bayon etiladigan, kishilarni axloqiy qonun-qoidalarga o'rgatadigan, ularga axloqning mohiyatini tushuntiradigan me'yorlardir [1]. Zero, insonning har bir xatti-harakati va niyati uning axloqiy madaniyatiga tegishli bo'lib, unda muayyan ijobiy faoliyat bilan birga, ezgulik va nafosat xususiyatlarini mujassamlashtiradi. Ma'lumki, kishilik jamiyati doimo taraqqiyotda ekan, uning axloqiy madaniyatga oid qarashlari ham doimo o'zgarib, rivojlanib, taraqqiy etib boradi. Yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalar ham o'zgarib rivojlanib boraveradi. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, axloqiy tarbiya natijasida odoblilik - xushhulqlilikka, xushhulqlilik – yuksak axloqiylikka aylangani kabi, axloqiy tarbiya yo'lga qo'yilmagan joyda muayyan shaxs, vaqti kelib, odobsizlikdan – badxulqlilikka, badxulqlilikdan – axloqsizlikka o'tishi mumkin.

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" risolasi "axloq insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg'on kitobni axloq deyilur" degan so'zlar bilan boshlanadi [2]. Shuningdek, Avloniy "axloq ilmini o'qub, bilub amal qilgan kishilar o'zining kim ekanini, janobi haq na uchun xalq qilganini, yer yuzida nima ish qilmoq uchun yurganin bilur" degan ifodalarni keltirib axloqiy madaniyatga urg'u beradi [3].

Shaxsning xulqida uning o'z-o'zini anglashi, mavjud ijtimoiy muhitining axloqiy talablari haqida tasavvurga ega bo'lishi ham muhimdir. Biroq xulq normalari haqidagi tasavvurlar, bilimlar bilangina kishilar xush axloqli bo'lib qolavermaydi. Axloq kodeksini yodlash bilan ish bitmaydi, balki shu xulq qoidalarining chinligiga, zarurligiga chuqur ishonch bo'lish kerakki, ular kishilarning faoliyatida, xatti-hara-

katida o‘zining amaliy ifodasini topmog‘i lozim.

Natijalar (results). Kishi biron yaxshi axloqiy xatti-harakatni bajarishi uni axloqiy madaniyatini belgilamaydi. Qachonki o‘sha fazilatli xulq vositasi uning xarakteridagi doimiy belgiga aylangan chog‘dag u axloqiy madaniyatli bo‘la oladi [4].

Shunday ekan, har qanday xatti-harakat xulq va faoliyat axloqiy madaniyatga oid bo‘lavermaydi. Axloqiy madaniyat deganda shaxsning boshqa kishilarga muayyan munosabati ifoda qilinadigan xatti-harakatlari va xulqi ko‘zda tutiladi. Bunda, albatta, shaxsda ijtimoiy va shaxsiy manfaatlar uyg‘unligi, jamiyatga ongli munosabatda bo‘lishi, xulqida axloqiy motiv, nihoyat, axloqiy xatti-harakatning zaminida ma’lum darajada erkinlik, tanlash erkinligi bo‘lishi lozim. Axloqiy madaniyat onglilik, ijtimoiylik va fuqarolikning eng oliy ifoda mezonidir. Bu talablar bo‘lmasa, umuman, axloqiy madaniyatning bo‘lishi, dargumon.

Axloqning madaniyatning yana bir ko‘rinishi axloqiy munosabatlardir. Axloqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismidir. Ijtimoiy munosabatlarning har qanday turi singari, axloqiy munosabatlar ham axloq normalari bilan cheklangan, shaxs va jamiyat, kishilar o‘rtasida aloqalar, bog‘lanishlar tarzida mavjud bo‘ladi. Shunga asosan, axloqiy munosabatlar o‘z shakliga ko‘ra, oila, jamoa, guruh, mahalladagi odamlar bilan bo‘lgan munosabatlar turlariga bo‘linadi. Ammo axloqiy munosabatlar – bu faqat aloqalar, bog‘lanishlardangina iborat bo‘lmay, ayni paytda, normativ asosga ega bo‘lgan o‘zaro ta’sirni kishining boshqa odamlar jamiyat oldidagi burchlarini ham o‘z ichiga oladi.

Xulqda, kishining xatti-harakatlarida, uning ichki, ma’naviy dunyosi, fikri, tuyg‘usi, intilishlari, odobi aks etadi. Jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy talablarning ham ijobiy, ham salbiy ko‘rinishlari xatti-harakatda namoyon bo‘ladi. Axloq, ong va faoliyat birligi tarzida, yaxshilik va yomonlikning, adolat yoki adolatsizlikning, vijdonlilik yoki vijdonsizlikni namoyon etadigan harakatlar yig‘indisidir [5].

Muhokama (discussion). Axloqiy munosabatlar, odatda, stixiyali, moddiy munosabatlar asosida shakllana boshlaydi. So‘ngra esa taraqqiy etib, moddiy munosabatlardan ajralib chiqib, mafkuraviy, g‘oyaviy, ma’naviy munosabatlar sohasiga kirib boradi. Axloqiy munosabatlar kishilarning irodasidan tashqari paydo bo‘lib, axloq normalarining qaror topishi, jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi jarayonida, albatta, kishilar ongi orqali o‘tadi.

Axloqiy munosabatlar o‘z mazmuniga ko‘ra, yo boshqarish, yoki qo‘riqlash vazifalarini bajaradi. Boshqaruvchi axloqiy munosabatlar muayyan jamiyatning normalari talablariga muvofiq holda yuzaga keladi, ular majburiylik vazifalariga daxldordir. Qo‘riqlovchi axloqiy munosabatlar shu normalarni buzuvchi xatti-harakatlar yuz berishi natijasida paydo bo‘ladi va ijtimoiy ta’sir choralarini amalga oshirishni ta’minlaydi. Demak, axloqiy munosabatlarning subyekti yakka shaxslar, guruhlar, oila, jamoa, davlatlar va h.k. bo‘lsin, baribir, hamisha insonning o‘zidir. Faqat odamlar va ijtimoiy hodisalargina emas, balki tabiat va uning elementlari ham axloqiy munosabatalarning obyekti bo‘la oladi.

Axloqiy madaniyatning burch, vijdon, or-nomus kabi bir qator kategoriyalari mavjud bo‘lib, axloqiy madaniyat hodisa sifatida inson ijtimoiy faoliyatini tartibga solishning boshqa shakllaridan, ya’ni, huquq, ishlab chiqarish ma’muriy nizomlardan o‘z talablarini asoslashi va amalga oshirishi bilan farqlanadi. Axloqiy madaniyatda ijtimoiy zaruriyat, ehtiyoj, jamiyatning manfaatlari aks etib, u barcha birdek qabul qilgan ommaviy namuna, odat, rasm-taomil jamoatchilik fikrlari bilan mustahkamlanadi hamda muayyan talab va mezonlarda baholash bilan ifodalanadi. Shuning uchun axloqiy madaniyatning talablari barchaga birdek joriy etilmagan burch, majburiyat tarzida namoyon bo‘ladi. Bu talablar nisbatan barqaror xarakterga ega bo‘lib, ijtimoiy hayotning turli sohalarida axloqiy madaniyatning o‘ziga xos normalari, ya’ni, mehnat axloqi, xizmat ko‘rsatish axloqi, kasbiy, tadbirkorlik, diplomatiya etikasi, maishiy turmush, oila axloqi kabi normalarda ifodalanadi. Ushbu qoida va normalar axloqning yagona asosga ega bo‘lgan nisbatan mustaqil sohalarini tashkil etib, axloqiy madaniyatning taraqqiyoti jarayonida rivojlanib boradi. Umuman olganda, axloqiy madaniyatning tadqiqot doirasi keng qamrovli bo‘lib, unda asosiy e’tibor inson faoliyati, insondagi xulq, odob, axloqning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni bilan belgilanadi [6].

Axloqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlaridan farq qilib, hamisha va hamma joyda axloqiy normalar ta’sirida namoyon bo‘lib turadi. Ular axloqiy faoliyat, xulq, xatti-harakatlarda, atrofdagi ijtimoiy borliqqa nisbatan axloqiy ta’sir ko‘rsatishda yuzaga keladi. Axloqiy munosabatlarning baholovchi xarakteri bilan birga yo‘naltiruvchi xarakterga egaligi ham uning o‘ziga xos belgisidir. Axloqiy munosabatlarda, kishilarning faoliyati va xatti-harakatlari, ular munosabatlarining axloqiy-amaliy ifodasi sifatida asosiy o‘rin egallaydi. Ayni paytda, axloqiy munosabatlar boshqa hamma ijtimoiy munosabatlar singari mustaqildir.

Jamiyat rivojlanib borgan sari uning axloqiy tizimi ham o‘zgarishlarga ehtiyoj sezib boradi. Shu ma’noda har bir shaxs jamiyat ehtiyojlariga ko‘ra, axloqiy jihatdan shakllanib, sayqallanib borsa, u ijtimoiylashadi. Jamiyatning barqaror taraqqiyot bosqichida tashqi kuchlar ta’sirining ortib borishi kishilarning, ayniqsa, yoshlarning ongi, ruhiyati va kayfiyatini milliy iftixorga moslashtirish ularning axloqiy madanityati darajasini yuksaltirish orqali har tomonlama kamolotga yetkazish zaruratini vujudga keltiradi. Ushbu zaruratni faqatgina yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirish mumkinligi bilan xarakterlanadi.

Xulosa (conclusion). Bugungu kunda jamiyatda oddiy fuqaro nazdida, nafaqat o‘z kasbini e’zozlovchi shaxs, balki haqiqiy huquq posboni, adolat timsoli sifatida gavdalanadigan ichki ishlar organlari xodimlari yuksak axloqiy madaniyatga ega bo‘lishi, ularning o‘z umrini millati va Vataniga hamda inson manfaatlariga bag‘ishlagan yuksak axloq egasi sifatida o‘zi yashayotgan jamiyat uchun namuna bo‘lib, o‘sha jamiyatning yanada taraqqiy topishiga xizmat qiladi desak, xato bo‘lmaydi. Agarda jamiyatda buning aksi bo‘lsa, ya’ni, qonun himoyachisi bo‘laturib, o‘zi qonunni buzsa, shaxsiy manfaati yo‘lida oqni qora, qorani oq deb tursa, bungday xodim axloqsizlik qilgan bo‘ladi. Natijada oddiy fuqarolar nazdida, birgina axloqsiz kishi uchun butun jamiyatning adolatsiz ekanligi to‘g‘risida noto‘g‘ri tasavvur uyg‘onib, bu tasavvurning muntazam kuchayib borishi oxir-oqibat o‘sha jamiyatni tanazzulga olib keladi. Eng asosiysi, insoniyat tarixida axloqsizlikning yuqori cho‘qqisi bir millat yoki mamlakat uchun zarar yetkazib (totalitar tuzum hukmdorlari xatti-harakatlari misolida), umumbashariy miqyosdagi fojialarga olib kelganligi o‘sh davrni o‘rganuvchi deyarli barcha tadqiqotlarda asoslangan faktlar bilan yoritilganligi ham ayni haqiqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). L.Muhammadjanova, Abdulla Sher, G.Shadimetova. Axloq falsafasi. Darslik, Toshkent, 2023, 208-bet.

(2). A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T., 1992, 11–71-betlar.

(3). Oltinbek Olim. Jadid adabiyoti namoyandalari. Abdulla Avloniy. “Zabarjad media”, 2022, 432-bet.

(4). Гегель. Феноменология духа (Вступ. статья и комментарий Ю.Р.Селиванова). М., Академический проект, 2008, с. 767 (Философские технологии: философия).ISBN 978-5-8291-1050-5.

(5). В.Семёнов. О перспективах человека в XXI столетии. “Вопросы философии”, Москва, 2005, №9, с. 27.

(6). O.G‘aybullayev. Shaxs ma’naviy kamoloni va estetik madaniyat. T., 2008, 107–120-betlar.

Madraximov Atabek Abduraximovich (Urganch davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi; e-mail:atabek@bk.ru)

YOSHLARNING IJTIMOIY MAS’ULIYATINI OSHIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI

Annotatsiya. *O‘zbek jamiyati ijtimoiy jarayonlaridaa yoshlarning ijtimoiy mas’uliyatini rag‘batlantirishda fuqarolik jamiyati institutlarining muhim rol o‘ynashi ushbu ishda tadqiq etilgan. Qiyosiy tadqiqotlar ushbu tashkilotlar yoshlarni jamiyat muammolarida ishtirok etishga qanday undashini, shu bilan faol fuqarolik va barqaror rivojlanishni shakllantirishini ko‘rsatishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *fuqarolik jamiyati, yoshlar ishtiroki, ijtimoiy mas’uliyat, global istiqbol, O‘zbekiston, qiyosiy tahlil.*

Мадрахимов Атабек Абдурахимович (преподаватель Ургенчского государственного педагогического института)

РОЛЬ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В ПОВЫШЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В данной работе исследована важная роль институтов гражданского общества в поощрении социальной ответственности молодежи в глобальном масштабе, а также в условиях Узбекистана. Сравнительные исследования помогают исследованию показать, как эти организации мотивируют молодежь к участию в проблемах общества, тем самым формируя активное гражданство и устойчивое развитие.*

Ключевые слова: *гражданское общество, вовлеченность молодежи, социальная ответственность, глобальная перспектива, Узбекистан, сравнительный анализ.*

Madrakhimov Atabek Abdurakhimovich (Teacher of the Urgench State Pedagogical Institute)

THE ROLE OF CIVIL SOCIETY INSTITUTES IN INCREASING THE SOCIAL RESPONSIBILITY OF YOUTH

Annotation. *The important part civil society institutions play in encouraging social responsibility among young people in global, Russian, and Uzbek settings is investigated in this paper. Comparative*